

Notiq Nutqi Ta'sirchanligini Oshirishda Paralingvistik Vositalarning O'Rni

Tavakkaljon Mo'Minov¹

Annotatsiya: Maqolada notiq nutqi ta'sirchanligini oshirishdagi paralingvistik vositalarning o'rni va ahamiyati ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'z va iboralar: notiq, nutq, muloqot, so'z, ta'sir, vosita.

Inson nutq so'zlayotganda faqat tik (lingvistik) vositalardangina foydalanib qolmaydi. Ya'ni muloqot jarayonida tildan tashqari (paralinvistik) vositalar ham faol ishtirok etadi. Biz ushbu maqolamizda nutq ta'sirchanligini oshirishda paralingvistik vositalarning o'rni, ahamiyatini harbiy xodimlar nutqi, muloqot jarayoni misolida tahlil etishga harakat qilamiz.

Harbiy diskursning noverbal aloqa (yuz sohasi a'zolari) orqali namoyon bo'lishida harbiy xodimlarning ishbilarmonlik aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Bu nafaqat harbiy xodimlarning kelajakdagi kasbini rivojlantirishi va maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallashi bilan bog'liq, balki shuningdek, yangi ijtimoiy muhitga sho'ng'ish bilan hayotning barcha jabhalari birlashtirish va qattiy tartibga solishdan iborat. Harbiydagi faoliyatida xodim muloqot orqali o'z xizmat burchini bajaradi va ushbu muloqot qonun asosida tartibga solinadi.

Shu bilan birga, harbiy faoliyatda nafaqat "til", balki muloqot davomida shaxsning yuzidagi o'zgarishlar ham muhim hisoblanadi. Chunki harbiy xizmatda mimik-ishoraviy muloqot yetakchilik, ishontirish, muzokaralar olib borish, madaniy ravonlik, o'qitish va o'rganishga bevosita ta'sir qiladi.

Harbiy xodimlar muloqot jarayonida ishlatiladigan noverbal vositalarning birinchi guruhiga mimika kiradi. Mimika [yun. mimikos – taqlidiy] 1. Yuz muskullarining his-tuyg'u, ichki kayfiyatni ifodalovchi harakatlari. 2. His-tuyg'u va kayfiyatlarning yuz muskullari harakati bilan ifoda etish san'ati [4, 588].

Insonning oltita asosiy hissiy holatning mimik ifodasida (g'azab, quvonch, qo'rquv, azoblanish, ajablanish va jirkanish) yuz mushaklarining barcha harakatlari muvofiqlashtiriladi. Harbiy xodimlar muloqotida ishtirok etuvchi mimika, ishora til sistemasiga kiradi va kishilar o'rtasidagi muomalada o'zaro bog'liq. Shunday qilib, yuz ifodasi faqat inson haqidagi ma'lumotlarni emas, balki uning tashqi qiyofasini ham o'z ichiga oladi.

Yuz harbiy xodimning psixologik holatlari to'g'risida asosiy ma'lumot manbaidir. Yuz ifodalari tana harakatlaridan ko'ra bir necha marotaba ongli ravishda yaxshiroq boshqariladi. Bunday psixikofiziologik holatlar har bir xalqda o'xshash va farqli jihatdan namoyon bo'ladi. K. Leonhardning fikricha, nazariy jihatdan emotsiyani ifodalash vositalari nafaqat turli xalqlar vakillarida, balki bir millatning turli vakillarida har xil bo'ladi. Inson tanasining nafaqat namoyon bo'lish uchun, balki his-tuyg'ularni ifodalash uchun ham moslashtirilgan organlari mavjud – bular *ovoz, bosh, ko'zlar va qo'llar*. Harbiy xodimlarda ularning yordami bilan ma'lumotni uzatish amalga oshiriladi. Bular, masalan, g'azab o'tida yongan quloqlar, hayratdan yuqoriga ko'tarilgan qoshlardir. Xullas, o'zbek harbiylari mimik muloqotning hissiy elementlarini kuzatganda, bir xil hissiy holatning turli elementlari tomonidan ifodalanishiga, bir qator his-tuyg'ularni yetkazish uchun bir xil elementdan foydalanishga e'tibor qaratildi.

¹ Farg'ona davlat universiteti magistranti



Ma'lumki, mimikani xuddi ifodali til deb atash mumkin. J. Nirenberg va G. Kaleroning fikriga ko'ra, ikki til mavjud: fikrlash tili yoki ifodali til va his qilish tili yoki mimika [1, 56]. Biroq, harbiy xodimlar muloqotda yuz ifodalarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- yuz ifodasi;
- qarash va ko'zlar ifodasi;
- qosh ifodasi;
- tabassum.

Harbiy xodimlarning yuzi og'zaki ifodalangan tarkibning hissiy va mazmunli matnni yetkazish, fikr-mulohazalarni ta'minlash, muloqot jarayonini nazorat qilish, mulohazalar ketma-ketligini muvofiqlashtirish va muloqot jarayonining o'zini tartibga solishga qodir bo'lgan eng muhim aloqa kanali bo'lib tuyuladi. Holbuki, tuyg'ular yuz ifodalari bilan shunchalik chambarchas bog'liqlik, birining mavjudligini ikkinchisiz tasavvur qilish qiyin.

Hissiy ko'rinishlarning faollik darajasi verbal ham noverbal, etnik jihatdan o'zgaruvchan: masalan, harbiy xizmatchilar faol va ongli ravishda his-tuyg'ular elementlarining kuchiga taslim bo'lishadi. Ikkita tilda his-tuyg'ularning shiddatli namoyon bo'lishi g'ayrioddiy bo'lib, bu milliy madaniyat, urf-odatlar va tarbiyaning hissiyotlarni ifodalashning bir xil shartli shakllariga ta'siri bilan bog'liq. Ayni paytda, turli xil his-tuyg'ular va hissiy holatlarning namoyon bo'lishi O'zbekiston qurolli kuchlari xizmatchilari muloqotda ularning o'zgartirilishi, ya'ni ikki xil madaniyat hissiyotlarining tashqi namoyon bo'lishi, aksariyat hollarda tipologik o'xshashlik haqida gapirishga imkon beradi.

Harbiy xizmatchilar muloqotida boshni gorizontal ravishda yon tomonga burish, kelishmovchilikni bildiradi yoki suhbatdoshning so'zlarini tushunmaslikni ko'rsatadi. Hayajonlangan odamda boshni yonma-yon ritmik silkitish ishonchsizlik, hamdardlik yoki qayg'uni ifodalaydi. Bu norozilik, ishonchsizlik va inkorni ifodalovchi universal imo-ishoradir. Darxaqiqat, boshni chayqash, odatda, so'zlovchining yoqimsiz his-tuyg'ularni boshdan kechirayotgani belgisidir. Bu imo-ishorani ham tug'ma deb hisoblash mumkin.

Gavda harakatlari noverbal vositalarning asosiy xususiyati bo'lib, kinetik komponent asosida yuzaga keladi. Kinesika kinesics inglizcha so'zdan olingan bo'lib, bu holat muloqotda ekspressiv va tartibga solish vazifasini bajaradi. Harbiy xodimlarning holatida, joyida, parakinesikani kommunikantlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqot paytida noverbal vositalar sifatida muloqotga kiritilgan muhim pantomimik harakatlar to'plami sifatida belgilaydi [3, 167]. G.V. Kolshanskiy kinesikani muloqot jarayonida axborotni uzatishda ishtirok etuvchi tananing ifodali harakatlari deb tushunadi [2, 84]. Demak, harbiy xodimlar muloqotida ishtirok etuvchi noverbal vositalarning moddiy tomoni gavda harakatidan iborat bo'ladi.

Ushbu maqolada biz harbiy diskursni gavda va boshqa noverbal vositalar orqali namoyon bo'lishini aniqlab talqin qilamiz. Harbiy xodimlarda gavda harakatlari sof biologik holat bo'lib, ularning harakatlanishi fiziologik yunalishning tekshiruvini asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun, harbiy xodimning kommunikatsiyasida noverbal muloqot vositalari orasida gavda holatining rolini alohida ta'kidlash kerak.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining saf nizomiga muvofiq joyda turganda, buyruq berayotgan yoki olayotganda, bildiruv berayotganda, harbiycha salom berayotganda, buyruq berilayotganda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida qad o'z-o'zidan g'oz tutiladi. Bosh kiyimsiz safdan tashqarida turgan harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida o'ng qo'lini ko'krak sohasining chap tomoniga qo'yib, yelkasini to'g'ri tutib turadi. Demak, imo-ishoralar bizning g'oyalarimizni oydinlashtiradi yoki ularni mustahkamlaydi, tinglovchilarga va vaziyatga juda mos bo'lishi kerak. Ba'zi imo-ishoralar o'z-o'zidan paydo bo'ladi, ba'zilari juda rituallashtirilgan va alohida ma'noga ega. Qurolli kuchlarning barcha turlari, qo'shin turlari, tuzilmalari, bo'linmalari yoki o'z an'analariga ega, ularni bilish va rioya



qilish hamma uchun majburiydir. Boshqacha qilib aytganda, imo-ishoralar nutq bilan chambarchas bog'liq: uni tasvirlaydi, to'ldiradi.

Yuquridagilardan ma'lum bo'ladiki, paralingvistik vositalar so'zlovshi yoki notiq nutqi ta'sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Buni har bir notiq yaxshi bilishi va o'z faoliyatida bunga amal qilishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Beattie G., Coughlan J. Do iconic have a functional role in lexical access? An experimental study of the effects of repeating a verbal message on gesture production // *Semiótica*. – Berlin, N.Y., – Vol. 119, № 3/4. 1998. – P. 221-249.
2. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974. – С. 84.
3. Ярцева В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 682.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.594.
5. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа Вазирлиги. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг Умумҳарбий Низомлари. – Тошкент: Шарқ нашриёти. – Б. 10.

